

## Oliy ta'lim muassasalarida pedagog-rahbarlar kompetentligining metodologik asoslari

Go'zal Erkinovna Xalikulova  
O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti

**Annotatsiya:** Maskur maqolada O'zbekiston o'tgan qisqa vaqt ichida huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyati qurishda dadil qadamlarni tashlab, o'ziga xos taraqqiyot yo'lini tanlab oldi. Iqtisodiy rivojlanishda bozor munosabatlariga bosqichma-bosqich o'tishda amalga oshirilgan qator islohotlar bugun o'z natijasini bermoqda. Mamlakat siyosiy va iqtisodiy hayotidagi tub o'zgarishlar, ijtimoiy va xususiy ishlab chiqarishda demokratik tamoyillarga amal qilish zarurligi barcha ta'lim muassasalari, korxona, muassasa rahbarlaridan mehnat jamoalariga rahbarlik qilishning yangicha usul va shakllarini o'rghanishni davrning o'zi taqozo qilinishi yoroyib berilgan.

**Kalit so'zlar:** huquqiy demokratik davlat, fuqarolik jamiyati, siyosiy va iqtisodiy hayot, oliy ta'lim, pedagog-rahbarlar, kompetentlikning metodologik asoslari

## Methodological foundations of competence teachers-heads of universities

Gozal Erkinovna Khalikulova  
Uzbekistan State Institute of Arts and Culture

**Abstract:** In the article, Uzbekistan has taken bold steps in building a democratic state of law and civil society and has chosen a unique path of development. A number of reforms carried out during the gradual transition to market relations in the development of the economy are bearing fruit today. Radical changes in the political and economic life of the country, the need to observe democratic principles in public and private production have clearly shown the time itself, which requires all educational institutions, enterprises and institutions to master new methods and forms of managing labor collectives. .

**Keywords:** legal democratic state, civil society, political and economic life, higher education, leader teachers, methodological foundations of competence

O'zbekiston o'tgan qisqa vaqt ichida huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyati qurishda dadil qadamlarni tashlab, o'ziga xos taraqqiyot yo'lini tanlab oldi. Iqtisodiy rivojlanishda bozor munosabatlariga bosqichma-bosqich o'tishda amalga

oshirilgan qator islohotlar bugun o‘z natijasini bermoqda. Mamlakat siyosiy va iqtisodiy hayotidagi tub o‘zgarishlar, ijtimoiy va xususiy ishlab chiqarishda demokratik tamoyillarga amal qilish zarurligi barcha ta’lim muassasalari, korxona, muassasa rahbarlaridan mehnat jamoalariga rahbarlik qilishning yangicha usul va shakllarini o‘rganishni davrning o‘zi taqozo qilmoqda. Ayniqsa, yangilanayotgan O‘zbekistonda yangi bozor munosabatlari oliy ta’lim muassasalari rahbarlari va pedagoglari oldiga ulkan yangi talablar qo‘ya boshladi. Ishlab chiqarishga yangi texnologiyalarni joriy qilish, raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqishda oliy ta’limda ta’lim sifatini oshirish, raqobatbardosh kadrlarni yetishtirish muhim masalaga aylanib bormoqda.

Rahbar har qanday tashkiliy tuzilmani boshqarish funksiyasi sifatida tizimning maqsadlarini ro‘yobga chiqarishni ta’minlash uchun xizmat qiladi. Boshqacha qilib aytganda, o‘zi boshqarayotgan muassasaning strategik maqsadlarini belgilash va ularga erishish yo‘llarini aniqlash asosiy vazifadir.

“Boshqaruv” fani eng qadimgi, ayni paytda, eng yangi fanlardan hisoblanadi. “Rahbar kompetentligi” tushunchasi shaxsning rahbarlik nazariyasiga oid muayyan bilim va ko‘nikmalarga egaligini bildiradi. Mazkur tushuncha rahbarlik uquvini to‘la qamrab ololmaydi. Chunki uquvning asosiy qismi rahbarlik mahorat darajasiga ko‘tarilganda egallanadi.

Kompetentlik ham turli darajalarga ega. Kompetentlikning quyi darajasida sohaga kerakli bo‘lgan bilimlarning eng zarurlari egallangan bo‘ladi. Yuqori darajasida esa boshqaruv bo‘yicha bilimlar to‘la hajmda egallanadi. Bu daraja bo‘lishi uchun boshqaruv ko‘nikmalari ham to‘la va yuqori darajada bo‘lishi zarur.

Bugun olimlarimiz kompetentlik masalasida ko‘p izlanishlar olib bormoqdalar va o‘zlarining bu boradagi fikr-mulohazalarini bildirmoqdalar. Falsafa fanlari doktori, professor A.Begmatov pedagog va bo‘lajak rahbarlarning malakasini oshirishdagi ko‘p yillik tajribalari asosida “Kompetentlikning yuqori darajasiga erishilganda rahbarlik mahorati shakllana boshlaydi. Rahbarlik mahoratining o‘ziga xos xususiyatlari shundan iboratki, mohir rahbar boshqaruvga oid muammolarni yechishning bir emas, bir necha variantlarini biladi. Mohir raharda rahbarlik ko‘nikmalari avtomatizm darajasiga ko‘tarilgan bo‘ladi. Mohir rahbar rahbarlikka oid muammolarni kam kuch, kam vaqt va ozroq resurslar sarf qilib ham hal qiladi”, degan xulosalarni bayon qiladi. Rahbar yoki pedagog o‘z faoliyati davomida mohir san’atkor bo‘lishining o‘zi qancha mashaqqatni talab qiladi. Lekin rahbarlik san’atining asoslarini egallah, uning tamoyil va usullarini amalda qo‘llashga harakat qilish turli muassasaning, turli darajadagi rahbarlarning majburiyatidir. Bu natijalarga erishishning asosiy maqsadi ham, sharti ham avvalo inson hisoblanadi. Chunki faqat inson omili taraqqiyotning qolgan barcha omillariga zamin bo‘lib xizmat qiladi.

Pedagog va rahbarlarning kompetentligini takomillashtirishning metodologik mazmunini talqin qilishda quyidagi tartiblar asos bo‘ladi. Bular:

- bilish nazariyasi;
- Sharq va G‘arb mutafakkirlarining qarashlari;
- Qonun hujjatlari;
- O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlari va farmonlari;
- Vazirlar Mahkamasining qarorlari;
- olimlarning qarashlari.

Bilish - ma’naviy-ruhiy hodisa bo‘lib, insonning olamini anglash qobiliyati, saralangan, tartibga solingan, muayyan usul yordamida olingan, ma’lum mezonlarga muvofiq tartibga solingan, ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan, odamlar va butun jamiyat tomonidan aynan bilish sifatida tan olinadigan axborot hisoblanadi. Bilamizki, ilmiy va diniy, falsafiy bilish mavjud. Shuningdek, turli sohalarda namoyon bo‘ladigan kasbiy va amaliy bilish ham mavjud. Aslini olganda, bularning barchasi inson ma’naviy olamining serqirraligi, unda turli-tuman jihatlar mavjudligidan dalolat beradi.

IX-XII asrlar Uyg‘onish davri madaniyatiga xos quyidagi xarakterli tomonlar ham inson omili taraqqiyoti bilan uzviy bog‘liqligini ko‘rsatadi:

- koinotning vujudga kelishi, bosqichlari, olamning tuzilishi, modda va ruhning xususiyatlari kabi umumiyligi ilmiy-falsafiy masalalarga qiziqish, ilm-fan, ma’rifat, ma’naviyatga intilish ijtimoiy rivojlanishning muhim mezoniga aylanishi;
- insonni koinotni Yaratuvchining eng oliy mahsuli deb baholash, avvalo ilm, inson ahli tafakkurini ulug‘lash, unga ishonch bildirish, targ‘ib-tashviq etish, ularning Yaratuvchining eng ulug‘ va yuksak ijodi deb baholash, ma’rifat tarqatish, jamiyat, jamoani yaxshilikka eltish insonning muhim vazifasi deb bilish;
- axloq, odob, muomalani inson tarbiyasining asosiy maqsadlaridan deb bilish, insonningadolat, yuksalish, ma’naviyatga intilishiga yo‘l olish, imkoniyat yaratish. Aqlda, axloqda, ma’naviyatda yetuk bo‘lish, komil insonni yaratish, insonparvarlik, vatanga, odamlarga xizmat qilish, insonlar orasidagi do’stlik, o‘zaro yordam, ko‘maklashuvga chaqirish bu davr madaniyatining yetakchi jihatlaridandir;
- komil inson rivojlangan davlatchilikda shakllanadi. Bunday davlatchilik esa aql va ilmga, o‘zaro kelishuv, birlikka ega bo‘lish natijasida amalga oshiriladi. Mustahkam davlatchilik turli ilm-fan tarmoqlarining rivojini ta’minlaydi;
- mustahkam davlatchilik fozil jamoani vujudga keltira oladi - bu davlat, jamoaga rahbarlik, hokimlik qilayotgan shaxsning ma’rifatli, ilmli, axloqli bo‘lishi, jamoani kelishib boshqara olishiga bog‘liqidir. Ma’rifatli shoh, jamoa yaratish, davlatchilikni mustahkamlash bu davr ijtimoiy ta’limotlarining muhim xislatidir.

Mavzuning mohiyatini ochishda metodologik asoslar mazmuniga to‘xtalar ekanmiz, uning lug‘aviy ma’nosiga e’tibor beraylik. Metodologiya - yunoncha

so‘zlardan olingan bo‘lib, *metod* - tadqiqot yo‘li, *logos* - fikr, sabab, ya’ni tadqiqotchining nazariy va amaliy faoliyatini tashkil etish, tiklash tamoyillari va usullari tizimi hamda bunday tizim haqidagi ta’limot degan ma’nolarni anglatadi. Metodologiya voqelikning muayyan qismini, biror jihatini, rivojlanishning ayrim holatini o‘rganuvchi, ayrim fanlar haqidagi ta’limotdir.

Falsafa tarixida olamni anglashda Geraklitning ilgari surgan fikrlari metodologiya vazifasini o‘taganligi ma’lum. Bu ta’limotning taraqqiyotiga Suqrot va Arastu kabi faylasuflar katta hissa qo‘sghanlar. Bundan tashqari, metodologiya haqida F.Bekon, R.Dekart, J.Lokk, G.Galiley va boshqa yevropalik olimlar metodologiyaga oid maxsus kitoblar yozishgan. Bundan tashqari, metodologiyaning rivojiga Kant, Fixte, Shelling, Gegel kabi olimlar ham katta hissa qo‘sghanlar.

Uni ilmiy bilishning, voqelikni anglash va o‘zgartirishning algoritmi sifatida ham qarash mumkin. Metodologiya to‘g‘risidagi ma’lumotlarda keltirilishicha, Qadimgi Gretsiya (Yunoniston)da geometriya yer maydonlarini o‘lchashda normativ yo‘l-yo‘riq bo‘lib xizmat qilgan ekan. Platon maqbarasiga kiraverishdagi eshikka esa “kimki geometriyani bilmasa, bizning oldimizga kirmasin”, deb yozib qo‘yilgan ekan.

Hozirgi davrda ijtimoiy-iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlarning shiddat bilan yuz berishi insonlar, jumladan, pedagog va rahbar psixologik resurslariga alohida talablarni qo‘ymoqda. Shuning uchun hozirgi davr psixologiyasida atrof-muhitda yuz berayotgan o‘zgarishlarga mos keladigan xususiyatlar va konstruktarni izlash va tadqiq etish kuzatilmoqda. Shunga qaramasdan, bugungi kunda kompetentlikning ko‘pchilik tomonidan e’tirof etiladigan nazariyasi mavjud emas. Uning shakllanish va rivojlanish omillari hamda mexanizmlarini talqin qilishda asosan Sharq va G‘arb mutafakkirlarining qarashlariga tayanish maqsadga muvofiqdir. Shu ma’noda Sharq va G‘arb mutafakkirlari, xususan, “Haqiqatni isbotlaguvchi”, “Yunon ilmining bilimdoni”, “Sharq-u G‘arb faylasuflarining sultonii”, deya ta’rif berilgan Umar Hayyom bilan G‘arb Uyg‘onishining boshida turgan Dantening inson, shaxs borasidagi falsafiy qarashlari o‘rtasida ajib bir uyg‘unlikni kuzatish mumkin. Umar Hayyom va Dante asarlarida mujassam bo‘lgan g‘oyalar bilan yaqinroq tanishilsa, ko‘rish mumkinki, bu yangi qarashlarning ikki asosiy qirrasi namoyon bo‘ladi, ya’ni Uyg‘onish davrida inson tabiat asosida, tabiat inson asosida kashf etilgan. Bu kashfiyotlarning ahamiyatini his etmoq uchun O‘rta asrlarda Muqaddas kalom - G‘arbdagi Injil, Sharqda Qur’oni karim dunyoqarashni, tabiat, inson, jamiyat munosabatini belgilovchi asosiy bilim manbayi hisoblangan.

Agar Uyg‘onish mafkurasini inson shaxsiga bo‘lgan qiziqishining uyg‘onishi bilan bog‘lasak, Sharq Uyg‘onish davri olim-u fuzalolarining qarashlarida inson irodasi erkinligi masalasi birinchi o‘ringa olib chiqilganiga guvoh bo‘lamiz. Inson o‘z o‘ylari, ishlari va harakatlari uchun javobgar deb e’lon qilingan. Shuning uchun ezbeglik va razolat, yaxshilik va yomonlik, inson va jamiyat munosabatlari, hissiyot va ong,

intilish va burch kurashi doirasiga olib chiqilgan. Shu nuqtayi nazardan Farididdin Attor dunyoni qaynab turgan qozonga o'xshatadi, o'z qarashlarida insonni ana shu "qozon"da qaynashga doimo undab keladi. Shundagina inson pishib yetilishini, komillikka erishishini ta'kidlaydi. Attor komillikka erishishda azizlarning so'ziga amal qilmoqligini ta'kidlaydi. Bunda ikki foyda borligini ta'kidlab, "birinchi foyda shulki, agar tolib bo'lsa, himmati kuchli bo'lgay, talabi ortgay! Ikkinci foyda, boshida takabbur bo'lsa, singay va dardmand, shikasta bo'lgay. Va yomon da'volar boshidan chiqadi, yaxshi va yomonning farqiga boradi, agar ko'r bo'lsa, o'zi mushohada qilgay", deydi.

Najmuddin Kubro, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Boburlar yurt qayg'usida yashab, o'z taqdirlarini xalq, millat, butun insoniyat taqdiri bilan uzviy bog'liqligini ko'rsatishda ham Farididdin Attorning falsafasiga tayanganlar. Ular oltita asosiy vazifani bajarishini ko'rsatib bergenlar. Birinchidan, jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarni maqsadga muvofiq tashkil etadi. Ikkinchidan, turli ijtimoiy guruh va sinflar manfaatlarining himoya qilinishini ta'minlaydi, ular orasidagi muvozanatni saqlab turadi. Uchinchidan, jamiyatdagi mulkchilik munosabatlarini ishlab chiqarish faoliyatini oshiradi. To'rtinchidan, fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoyalovchi vosita sifatida xizmat qiladi. Besinchidan, voqelikda keng ildiz otgan illatlar ijtimoiy taraqqiyotga to'siq bo'layotgan munosabatlarni bartaraf etishga da'vat qiladi. Oltinchidan, odamlarda kelajakka ishonch tuyg'usini uyg'otadi va kuchaytiradi.

O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom karimov o'z asarlarida shunday fikrlarni keltirgan edi: "Boshqaruv tizimini takomillashtirish bevosita rahbar ma'naviyati, uning shaxs sifatidagi kamoloti, yetuk va komil insonligi bilan bog'liq bo'lib qolmoqda. Shuning uchun biz turli toifa, darajadagi rahbar kadrlarni tayyorlaganda ularning qobiliyati, bilim darajasi, tajriba va ko'nikmasi bilan birga, ma'naviy qiyofasiga ham jiddiy e'tibor bermog'imiz lozim". Yana kompetentlik tushunchasiga yaxshigina ta'rifni ham keltirgan edi: "Bugungi kunda hukumat oldida turgan vazifalarning to'laqonli bajarilishi uchun, mening fikrim bo'yicha, avvalambor, ikkita narsani talab qilish kerak. Birinchidan - har bir mutasaddi rahbarning o'z ishiga bo'lgan mas'uliyatini tubdan o'zgartirish, shaxsiy javobgarlikni oshirish. Ikkinchidan - hukumat a'zosi sifatida sizga katta ishonch, katta vazifa yuklatilgan. Lekin shu ishonch, shu vazifaga munosib bo'lish uchun har qaysingiz tegishli bilim va tajriba, yuqori malakaga ega bo'lishingiz shart. Rus tilida buni "компетентность" deydi. Ya'ni o'z sohasida kompetentli bo'lish - bu zamona talabi. O'zbekcha aytganda, o'z ishining ustasi bo'lish, o'z sohasining sirlarini har tomonlama chuqur bilishi kerak".

Mamlakatimiz va xorijda mazkur mavzu bo'yicha tadqiqotlarni tahlil qilish shundan guvohlik beradiki, uning dolzarbligi va muhimligini barcha olimlar e'tirof etadi. Masalan, rossiyalik psixolog olimlar A.G.Asmolov, D.A.Leontyev, L.A.Petrovskaya, Y.B.Shestopal ta'kidlashlaricha, psixologik kompetentlik

tarkibidagi kommunikativ kompetentlik atroficha o‘rganilgan. Pedagogning va rahbarning psixologik kompetentligi uning kasbiy mahoratida yetakchi o‘rinlardan birini egallashi ko‘pchilik tomonidan e’tirof etiladi. Bunday e’tirof turli darajadagi hujjatlarda: me’yoriy, professiografik, pedagog va rahbarlikka bag‘ishlangan hujjat va tadqiqotlarda o‘z ifodasini topgan.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Г.Е. Халикулова. Сценическая речь. Ташкент-2007
2. Г.Е. Халикулова. Народный поэт Узбекистана Мухаммад Юсуф-певец родного края и любви. Международная конференция, стр. 154-159
3. Г.Е. Халикулова. Актуальные проблемы подготовки высококвалифицированных научных и научно-педагогических кадров в институте. Театр// – Ташкент: 2014, стр. 9-10.
4. Г.Е. Халикулова. Проблемы создания персонажей в театральных постановках. Роль искусства и культуры в формировании духовности человека / Республика...
5. Г.Е. Халикулова. Проблемы гармонии речи и движения в создании пьесы. Творчество Мукарамы Тургунбаевой и развитие ее узбекской сценической хореографии...
6. Г.Е. Халикулова. Формирование сценической речи в профессиональных спектаклях и роль системы Станиславского в развитии театрального искусства. Университет культуры и искусств в мировом образовательном пространстве: Российский...
7. Г.Е. Халикулова. Новые стилистические исследования, совершенствующие дыхание в овладении навыками сценической речи актера. Сохранение национальности в области хореографии в условиях глобализации...
8. Г.Е. Халикулова. Современный руководитель озабочен повышением профессиональной речи женщины. "Женщина - расцвет духовности" ЖизПи., 4-я Республиканская научно-практическая конференция...
9. Г.Е. Халикулова. Роль искусства в развитии страны, процветании народа и воспитании зрелого поколения. «Подготовка образованного и интеллигентного зрелого поколения» прошла в Ташкенте
10. Г.Е. Халикулова, Шодиев Х.Х. Повышение качества подготовки кадров и развитие отрасли в Государственном художественном институте Узбекистана. Проблемы создания образа героя времени в искусстве и культуре Узбекистана...
11. Г.Е. Халикулова. Духовная зрелость является обязательным требованием. ЖизПИ, сборник, стр. 363
12. Г.Е. Халикулова. Мастер деликатных слов. Статья к монографии «Мухсин Гамидов (Мастер художественного слова)» УзГСИ, стр. 8

13. Г.Е. Халикулова. Искусство на пути к развитию. Калдиргоч, Ташкент
14. Г.Е. Халикулова. Вопросы повышения активности молодежи в музыкальном исполнительстве и ее развития. Ташкентский ТДМИ, (Топлам)
15. Г.Е. Халикулова. Личные комментарии о современном театре. Калдиргоч, г. Ташкент, стр. 2
16. Г.Е. Халикулова. Сцена - историческая сцена. Театр, Ташкент, стр. 20-21
17. Г.Е. Халикулова. Поэзия Навои в речи актеров. Театральная, 10-11
18. Г.Е. Халикулова. Маннон Уйгур – выдающийся режиссер узбекского театра и мастер сценической речи. Институт литературы и искусства, Алматы, 59-60
19. Г.Е. Халикулова. Сценическая речь и язык. Мулагот, Ташкент, 35
20. Г.Е. Халикулова. Сцена актера пуста. Театр, Ташкент, стр. 22-23
21. Г.Е. Халикулова. Преподавание воспитательного процесса по укреплению не сильных педагогов студентов - будущих педагогов. наука и образование 3 (4), 484-491
22. Г.Е. Халикулова. Спецновелла Ойбекнинга "Навои". наука и образование 3 (4), 300-307
23. Г.Е. Халикулова. Особенность поздравительной речи. наука и образование 3 (4), 769-776
24. Г.Е. Халикулова. Язык и стиль оммабопа. наука и образование 3 (4), 759-765
25. Г.Е. Халикулова. Речь Мирзо Улугбека в спектакле. наука и образование 3 (4), 353-358
26. Г.Е. Халикулова. Улучшить разговорные навыки женщин-ученых и руководителей. наука и образование 3 (4), 343-353
27. Г.Е. Халикулова. Алишер Навои драмаси олтин мерос. наука и образование 3 (4), 334-343
28. Г.Е. Халикулова. Ёш навқирон Навои сиймоси актерлар назарида. наука и образование 3 (4), 328-334
29. Г.Е. Халикулова. Интерпретация образа Мирзо Улугбеком - сцена школьной речи. наука и образование 3 (4), 317-328
30. Г.Е. Халикулова. Описание Алишером Навои тона и речи образа. наука и образование 3 (4), 307-312